

ResearchBib Impact Factor: 10.57 / 2024
SJIF-2023: 3.825, 2024: 5.333



TECHNICAL SCIENCE **RESEARCH** IN UZBEKISTAN

Research Science and
Innovation House

OUR INDEXING



ISSN: 2992-9148 <http://universalpublishings.com>

ResearchBib Impact Factor: 10.57/ 2024
SJIF-2023: 3.825, 2024: 5.333



TECHNICAL SCIENCE **RESEARCH** IN UZBEKISTAN



Research Science and
Innovation House

VOLUME 3 **ISSUE 04**

APRIL 30, 2025

editor@universalpublishings.com

<http://universalpublishings.com>

«TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN» ilmiy-uslubiy
jurnali: 30.04.2025-yil.

Ushbu to'plamda «TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN» ilmiy-uslubiy jurnali 2025-yil 3-soni 4-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga DOI unikal raqami biriktirilib, **Directory of Research Journals Indexing, Researchbib, Index Copernicus, Zenodo, Open Aire, Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Jurnal materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



Research Science and
Innovation House

“RESEARCH SCIENCE AND
INNOVATION HOUSE” MCHJ



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir, Eshkarayev Sadridin Choriyevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrası mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

Mas’ul kotib: Boboyorov Sardor Uchqun o‘g‘li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali magistranti

Nashrga tayyorlovchi: Eshqorayev Samariddin Sadriddin o‘g‘li Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti magistranti

TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

Bosh muharrir, Eshkarayev Sadridin Choriyevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrası mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Roumyana Pancheva, Janubiy Kaliforniya universiteti

Texnika fanlari muharriri, Eshqarayev Ulug‘bek Choriyevich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrası dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O‘zbekiston.

Falsafiy fan muharriri Floris Rulofsen, Amsterdam universiteti

Texnika fanlari muharriri Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti dekani , texnika fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Maribel Romero, Konstanz universiteti

Kimyo fanlari muharriri Mirabbos Xo‘jamberdiyev Ikromovich – Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

Filologiya fanlari muharriri Yael Sharvit, Kaliforniya universiteti, Los-Anjeles

Kimyo fanlari muharriri, Eshqurbonov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, professor Termiz, O‘zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Benjamin Spector, National de la Recherche Scientifique markazi

Iqtisod fanlari muharriri, Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Yasutada Sudo, London Universitet kolleji

Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri, Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, ijtimoiy va gumanitar fanlar doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Zoltan Gendler Szabo, Yel universiteti

Tibbiyot fanlari muharriri Otamurodov Furqat Abdukarimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, tibbiyot fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston

Falsafa va tilshunoslik muharriri Aleksis Uellvud, Janubiy Kaliforniya universiteti

Biologiya fanlari muharriri Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali., biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O‘zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Faslafa fanlari muharriri Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Jurayeva Ramziya Abdurahimovna Qo‘qon davlat pedagogika instituti. Qo‘qon, O‘zbekiston filologiya fanlari fanlari doktori (PhD), katta o‘qituvchi.

Fizika-matematika-fanlari muharriri Bobamuratov Ulug‘bek Erkinovich Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O‘zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tibbiyot fanlari muharriri Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrası mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

Gumanitar fanlar muharriri Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar va yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)

Texnika fanlari muharriri Hasan Soyibnazarovich Beknazarov Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi, texnika fanlari doktori, professor.

Texnika fanlari muharriri Hamroqul. A.Ravshanov Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti Irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti direktorining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari, texnika fanlari doktori.

QUROQCHILIK SAN'ATI VA UNGA INNOVATSION YONDASHUV

Eshqorayev Ulug'bek Choriyevich- TISU, Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti, texnika fanlari nomzodi.

Tel. +998993777037. Ucheshkarayev@gmail.com

Jumayeva Sarvinoz Musulmonovna-TISU talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Surxon vohasi xotin-qizlari ko'p foydalanadigan quroq turlaridan biri-shaxmat quroq asosida bir xil shakldagi kvadrat mato parchalarini bir-biriga tartib va mahorat bilan birlashtirib "Transformer xamyon" yaratish jarayoni keltirilgan.

ИСКУССТВО ЛОСКУТНОГО ШИТЬЯ И ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К НЕМ

Аннотация

В данной статье представлен процесс создания «Кошелек-трансформера» путем искусного и системного соединения квадратных кусков ткани одинаковой формы по принципу шахматной доски — одного из видов лоскутного шитья, который обычно используют женщины Сурханского оазиса.

THE ART OF PATCHWORK AND AN INNOVATIVE APPROACH TO IT

Abstract

This article presents the process of creating a "Transformer Purse" by skillfully and systematically joining square pieces of fabric of the same shape using the chessboard principle - one of the types of patchwork sewing that is commonly used by women of the Surkhan oasis.

Xalqimiz o'zining boy badiiy merosi, yuksak milliy hunarmandchiligi an'analari bilan, nafaqat, O'rta Osiyoda balki, butun dunyoda o'z o'rniga, o'z usuliga ega mamlakatdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev bejizga quyidagi fikrlarni tilga olmagan: "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boylıklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi".

Quroqchilik san'ati ham ana shunday xalq amaliy san'ati turlaridan biri hisoblanadi. Quroqchilik qadimiy tarixga va an'anaga ega. O'zbekiston Milliy

Ensiklopediyasi kitobining XI jildida quroq haqida quyidagicha fikr yuritilgan: Quroq-mayda bo'laklardan ulab, to'plab bezak yaratishdir va shu usulda yasalgan bezak buyum ham quroq deb ataladi. Turli rang va shakldagi mayda mato parchalaridan buyum bezak hosil qiladi. Amaliy san'atda keng tarqalgan: ko'rpa, ko'rpacha, choyshab, so'zana, dasturxon, gilam, yostiq jildi, igna qadagich, choynak yopgich va boshqa jihozlar qadimdan shu usulda tayyorlanib, ajoyib san'at namunalari yaratilgan.

Surxon vohasi xotin-qizlari ko'p foydalanadigan quroq turlaridan yana biri-Shaxmat quroqdir. Shaxmat quroq – bir xil shakldagi kvadrat mato parchalarini bir biriga tartib va mahorat bilan birlashtirish natijasida hosil bo'ladigan quroq turi. Albatta, bu quroqda faqat oq va qora ranglardan foydalanilmasada, asos shaxmat taxtasiga qiyoslanadi. Shaxmat quroq nafaqat bizning xalqimizda balki boshqa xalqlarda ham qadimdan mavjud bo'lib, bu quroq turidan foydalanilib dasturxon, ko'rpa, sumka, shuningdek, liboslar ham tikilgan. Bu quroqning tayyorlash jarayoni nisbatan oddiyroq ko'rinsada, aslida alohida mahorat va ziyraklik talab etiladi. Chunki, tayyorlanayotgan ishning muvaffaqiyati ranglarni to'g'ri tanlash va o'z o'rnida foydalanishga bog'liq bo'ladi. Shaxmat quroqda yorqin ranglardan foydalanilishi kishiga quvnoqlik va jo'shqinlik kayfiyatini bersa, neytral ranglarning tanlanishi esa kishiga sokinlik tuyg'usini ulasha oladi.

Quroq tikish san'ati xalqimizning nafaqat estetik did sohibi, balki isrofgarchilikka yo'l qo'ymaydigan, tejamkor va san'atga oshno qalb egasi ekanligidan dalolat beradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, xalqimiz yaratgan har bir quroq san'ati asari namunalaridagi belgilar, bezaklar va ramzlar so'zlaydi. Chunki, san'at namunalarining hech bir qismi shunchaki emas, ulardagi har bir detal va ko'rinish xalq turmush tarzi, orzu umidlari va an'analarini o'zida aks ettiradi.

Ana shunday misollardan biri ikki xil vazifa bajaruvchi qulay ixcham yengil kamxarj hamyonni taqdim qilmoqchimiz.

Eng muhimi mato qoldiqlari va bitta zamok bo'lsa bo'lgani, qolgani esa qo'l mehnatidir. Bu hamyonni nomini "Transformer xamyon" deb nomladik. Uch santimetr qilib ikki xil matoni uzun qilib qirqib olamiz. So'ng'ra birlashtirib bir xil qilib tikamiz. Tayyor bo'lgan birlashma matoni 3 sm dan qilib o'lchab kesib olamiz. Qirqilgan bo'laklarni o'lchamini to'g'irlab bir biriga birlashtiramiz. Shunda oq qizil rang bir birini takrorlab ketma ket keladi bu esa shashka va shaxmat doskasini eslatadi. 4 oq 4 ta qizil katakchalar hosil qilib, enini, so'ngra esa bo'yini yasaymiz.



1-rasm. Transformer-xamyonning umumiy ko'rinishi
Hosil bo'lgan hamma mato birlashmasini tikib bo'lgach, tagini qattiqroq bo'lishi uchun avval flazilin so'ngra esa hohlagan rangli mato bilan qoplaymiz. Mato chetini chiroyli qilib tekislab, ortiqcha joylarini qirqib tashlaymiz.



2- rasm. Transformer-xamyonning shashka doskasiga aylanishi

Keyingi vazifamiz zamok qo'yishdir. Moshinaning maxsus zamok tikadigan tishidan foydalanib, zamogimizni bir xil qilib tikib olamiz. E'tibor berishimiz kerakki, zamokning oxirgi mahkamlanadigan qismi tikilmay ochiq qolishi kerak. Shunda xamyonni shaxmat doskasi ko'rinishida yoyganimizda tekis yoyiladi. Shashka o'ynashda noqulaylik tug'dirmaydi. Dazmol yordamida orqa tomonidan yaxshilab dazmollash tavsiya etiladi.

Shashka donalarini mato qoldiqlariga mos qilib tayyorlash mumkin.

Avvalo transformer so'ziga bir to'xtalib o'tsak. Transformer so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, turli ma'nolarga ega. Umumiy ma'noda, „Bir narsani o'zgartiruvchi yoki boshqa shaklga aylantiruvchi narsa“, degan ma'noni bildiradi.

Kvadrat shakl va mato qoldiqlaridan ilxomlanib transformer hamyon yaratildi. Hamyonning hech qanday xarajatsiz yasalishi ayni muddao. Biz kundalik hayotimizda juda ko'plab matolar bilan ishlaymiz. Lekin hammamiz ham mato qoldiqlaridan unumli foydalana olmaymiz. Juda ko'plab san'at asarlari nodir qo'l ishlanmalari yaratish imkoniyati bizning e'tiborimizdan chetda qoladi. Kundalik hayotimizda keng qo'llaydigan uy ro'zg'or buyumlarimizdan tortib, mana bunday tarzda yasalgan transformer hamyon ham sizga juda ajoyib daqiqalarni inom etishi mumkin. Bolalarimizni telefon olamidan qutqarib ularni aqliy mehnatga, qolaversa qo'l mehnatiga o'rgatsak nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Bemalol biron yaqiningizning yaxshi kunlariga o'z qo'llaringiz bilan tayyorlab sovg'a qilsangiz uni quvontirasiz va o'zingiz ham quvonasiz, chunki qo'l mehnati har doim qadrlanadi.



3-rasm. Transformer-xamyonning shashka donalari

Bu hamyon ikki xil vazifa bajaradi. Juda yengil, ko'chada olib yurishga qulay, bejirim hamyon va shashka doskasi hamdir. Shashka donalari o'quvchilar va yosh bolalar o'ynaydigan rangli yumshoq yengil plastik po'kakdan yasalganligi sababli hech qanday vaznga ega emas. Ko'tarishda noqulaylik tug'dirmaydi.

Plastik po'kakni kerakli shaklda yasab, quritib olsak ayni muddao. Shashka donachalarining bir tomoniga „D” harfini ruchka yordamida yozib qo'yamiz. Matoning rangiga qarab donachalarni hohlagan och to'q ranglardan foydalanib yasasa bo'ladi. Bu shashka matosida oq va qizil rangdan foydalanilgani sababli donalari ham huddi shunday rangda tayyorlandi. Biron donasi yo'qolgan taqdirda ham yana bemalol yasab olsa bo'laveradi. Katta kichikligiga qarab Plastik po'kakdan juda ko'p shashka donasi yasasa bo'ladi. Bolalarimiz bilan birgalikda bemalol o'ynashimiz mumkin.

Quroqchilik haqiqatdan ham bejirim san'at turidir. Mehr berganingiz sayin turli xil g'oyalar kelaveradi. Hamda aytib o'tganimizdek, isrofga yo'l qo'yilmaydi. Bu quroqchilik hunarini har bir ona o'z qiziga o'rgatishi kerak. Hayot davomida albatta asqotadi. Ro'zg'origa foyda keltiradi. Hurmat qozonadi, axir tejamkor kelin kimga ham yoqmaydi. “Epli kelin- sepli kelin”, degan ajoyib bir maqol bor.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi kitobio XI jild. 2020 y.
2. Eshqoraev U.Ch. Chorjeva D.U. Maktab o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari. Jizzax. Ilmiy-nazariy konferensiya. 2022 y.
3. Eshkaraev Ulugbek Chorjevich. Bobolov Nuriddin Tojjiyevich. Methods of intensive development of creative activity of primary school students. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. Vol. 12, May 2022.
4. Eshqoraev U.Ch. Chorjeva D.U. Analysis of the situation in the lesson process. Volume 3, Issue 12 of Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), Dec., 2022.
5. Eshqoraev U.Ch. Davlayeva M.U. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. Toshkent. 4-son. 2022 y.
6. Махмудов Ю. Г.б Эшкараев У.Ч. Инновацион таълим технологияларидан укув жараёнида фойдаланишнинг методик-дидактик асослари. Монография - Т.. “Yangi nashr” nashriyoti, 2019. 196 б.

**3d METALLAR IONLARINING KO‘P FUNKSIONAL IONITLAR BILAN
ERITMALARDA KOMPLEKS BIRIKMALAR HOSIL QILISH
JARAYONLARI TAHLILI**

¹Boltayev N. S., ²Amanov B.Sh., ¹Sharifova L.B., ¹Usanova F.B.

¹Termiz davlat universiteti

²Termiz muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Boltayev Nurmuhammad Suyunovich

Termiz davlat universiteti Kimyo fakulteti o‘qituvchisi

E-mail: Hanur1992yil@gmail.com

Amanov Bahodir Sharifovich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

E-mail: baho78.78@mail.ru

Usanova Farzona Beknazar qizi

Termiz davlat universiteti talabasi

E-mail: farzonausanova911@gmail.com

Sharifova Lola Baxodirovna

Termiz davlat universiteti talabasi

E-mail: sharifovalola601@gmail.com

Annotatsiya: Rivojlangan mamlakatlar o‘rtasida so‘nggi o‘n yilda sintetik ionitlarni ishlab chiqarish ikki barobarga ortgan. Olingan ionitlar hajmi jihatidan MDH davlatlari ikkinchi o‘rinda turadi va 65 foizi gidrometallurgiya sanoati korxonalarida metallarni kontsentrlash va ajratishda, xalq xo‘jaligining turli sohalarida ichimlik suv olishda ishlatiladi. Bundan tashqari, ishlab chiqarilgan ionitlar AES, IES va sanoat chiqindilarini tozalashda 15%, kimyoviy texnologiyalarda 9%, oziq-ovqat va farmatsevtika sanoati 6% va qolgan qismi boshqa sohalarida qo‘llaniladi. Ionitlar metallarni turli darajadagi muhitga ega bo‘lgan eritmalarga tanlab ta’sir etib

sorbtsiyalaydi, unumli ajratib olish imkonini beradi. Shu sababli, ko'pgina ilmiy ishlar yangi ionitlar sintezi, fizik-kimyoviy xossalari tadqiqoti va ularni sorbtsiya jarayonlarida qo'llash texnologiyalarini yaratishga qaratilgan.

Kirish: Kompleks hosil qiluvchi sorbentlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, polimer strukturaga birikkan faol kimyoviy guruhlar metall ionlari bilan o'zaro ta'sirlashib, mustahkam kompleks hosil qiladi. Bu ta'sirning xususiyati funksional guruhlar, metall ionlarining tabiati va sorbtsiya sharoitiga bog'liq. Shunga ko'ra, sorbentlar sifatida tarkibida nitro- va sulfo-guruh tutgan yangi sintez qilingan ionitlar: (DGT+PEPA, DGT+M, DGT+GIPAN, DMT+PEPA, DMT+M va DMT+GIPAN) qo'llanildi.


O'rganilgan metall ionlarining anionitlar funksional guruhlar bilan ion-koordinatsion ta'sirining spektral ko'rinish sohasi aniqlandi. Differensial IQ-spektroskopiya usulida ionit aminokarboksilat komplekslari ichki koordinatsion sfera tarkibining kompleks hosil qiluvchi ion tabiati, muhit pH i, eritmaning anion tarkibi va anionitlarning ligand guruhlarining kimyoviy tuzilishiga bog'liqligi aniqlandi. Kuchli kislotali muhitda metall ionlarining anionitga yutilishi kompleks kationlarning protonlashgan aminoguruhlar bilan tashqi sferali tuzilish hosil qilib, ionli ta'sirlashuvi hisobiga sodir bo'lishi ko'rsatib berildi. Ionit fazasidagi metall ionlari komplekslarining barqarorligi funksional guruhlar kislotaligiga bog'liq bo'lib, ularning kislotalik xossasi qanchalik kuchsiz bo'lsa, hosil bo'ladigan kompleks birikmalar shunchalik mustahkam bo'ladi. Anionit fazasidagi funksional guruhlarining mis bilan hosil qilgan komplekslarining mustahkamligi muvozanatdagi eritma pH iga kamroq bog'liq bo'ladi.

Shunga ko'ra, ion almashinuvchilarning regeneratsiya sharoiti tanlandi. Desorbtsiya jarayonida kompleks birikmalar uni tashkil etuvchi komponentlarga parchalanadi va oraliq komplekslar diffuziya jarayonida chiqarib tashlanadi hamda yo'qotiladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili: Metall-ionit komplekslarining barchasida $N \rightarrow Me$ bog'i uchun xos bo'lgan $1400-1300 \text{ cm}^{-1}$ sohada yutilish chiziqlari mavjud. Ionitlarning kompleks hosil qilish xossasi eritmaning pH qiymatiga sezilarli darajada bog'liq. Shuning uchun sintez qilingan ionitning sorbtsiya qobiliyati sorbtsiyalanayotgan komponentni tutgan eritmaning pH qiymatiga bog'liqligi o'rganilgan. 0,05 n. li tuz eritmalari va erituvchilarda metallarning so'rilish jarayonini pH 2 dan 8 gacha bo'lgan diapazonda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bunda

ionitning protonlangan (... H^+) va hidratlangan (... HOH) shakldagi aminoguruhlarining nisbati o'zgaradi.


Quyidagi 1 va 2-rasmlardan ko'rinib turibdiki, eritmaning pH qiymati oshgani sari ionitning metall bo'yicha sig'imi ham ortadi va hidrat shakldagi aminoguruhlar miqdori ko'payadi. Biroq, bu qonuniyat pH ning ma'lum qiymatigacha saqlanadi, undan oshib ketsa, metall gidroksid hosil bo'lib cho'kma tushadi. Eng kam kompleks birikma hosil bo'lishi ionitning protonlangan shakli uchun xos bo'lib, azot-vodorod bog'i azot-metall bog'idan mustahkamroq hisoblanadi. Protonlangan shakldagi funksional guruhlarining metall ionlari bilan kompleks hosil qilishi ionit tarkibidagi hidratlangan aminoguruhlar hisobiga sodir bo'ladi. To'rsimon polielektrolitlarda zaryadlar zichligi katta bo'lgani sababli, ularni har doim ham to'liq protonlashtirish mumkin emas. Bu esa muhit pH qiymatining oshishi bilan polimerlarning sorbsiya qobiliyatining ortishini isbotlaydi.



Мухит, pH

1) Cu^{2+} (—●—); 2) Zn^{2+} (—■—); 3) Cd^{2+} (—▲—); Pb^{2+} (—×—)

3.9-rasm. DGT+PEPA asosida olingan ionitning sorbsiya qobiliyatining muhit pH ga bog'liqligi



Мухит, pH

1) Cu^{2+} (—●—); 2) Zn^{2+} (—■—); 3) Cd^{2+} (—▲—); Pb^{2+} (—×—)

3.9-rasm. DGT+M asosida olingan ionitning sorbsiya qobiliyatining muhit pH ga bog'liqligi

Ionitlarning sorbsiya qobiliyatini atroflicha o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, mis (II) ionlarining kompleks birikmalar hosil qilishi $pH = 3-5$ bo'lganda maksimal qiymatga erishadi. Muhitning ishqoriyligi oshganda, kompleks birikmalar hosil bo'lishi bilan bir qatorda gidroksid va asosli tuzlar ham shakllanib, ionitning qattiq fazasiga cho'kishi kuzatilgan.

Xulosa:

Tadqiqot natijalari asosida aniqlanishicha, diglitsidiltiokarbamid va uning polietilenpoliamin, melamin hamda GIPAN bilan o‘zaro reaksiyalari asosida sintez qilingan polifunksional anionitlarning sorbsiya xossalaridan foydalanish istiqbolli. Olingan natijalar oraliq metall ionlarini konsentrlash va ajratishda hamda ularni azot bilan koordinatsion birikmalar hosil qilmaydigan tuzlar eritmalaridan chiqarib tashlashda sintez qilingan ionitlarni qo‘llash juda muhim ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli, bu ionitlarni tavsiya etish uchun barcha asoslar mavjuddir. Shuningdek, tadqiq etilgan ionitlarning Cu^{2+} , Zn^{2+} , Cd^{2+} , Pb^{2+} ionlariga nisbatan statik sorbsiya va statik sorbsiya sig‘imi turli omillarga (muhit pH, metall tuzlari konsentratsiyasi, harorat va sorbsiya vaqti) bog‘liqligi o‘rganildi. Anionitlarning metall ionlarini sorbsiya qilish diapazoni quyidagicha aniqlandi:

Zn^{2+} : 3.8–4.1 mg-ekv/g,

Cu^{2+} : 4.0–4.7 mg-ekv/g,

Pb^{2+} : 3.4–4.3 mg-ekv/g,

Cd^{2+} : 3.1–3.9 mg-ekv/g.

Eng yuqori almashinish sig‘imi anionit : metall nisbati 1:2 bo‘lganda kuzatilgan.

Adabiyotlar:

1. Eshkurbonov F.B., Jalilov A.T. Rangli metall ionlarining oligomer epichlorohydrin va thiourea-ga asoslangan yangi anionitlar bilan sorpsiyasi. // XI xalqaro Sankt-Peterburg yosh olimlar konferensiyasi **"Polimershunoslarning zamonaviy muammolari"**. - Sankt-Peterburg. - 2015. - 405-409-betlar.

2. Turayev Kh.Kh., Jalilov A.T., Qosimov Sh.A., Ergasheva N.N., Eshkurbonov F.B. Sintez kompleksli anionitning fizikaviy-kimyoviy xossalarini tadqiq etish. III Kimyo va kimyoviy texnologiya bo'yicha xalqaro konferensiya. - 2013. - P. 450-452.

3. J.M. Ashurov, N.S. Muhammedov, B. Tashhodjaev, B. Ibragimov. J. Struct. Chem., - 2015. – 56, N 6. – 1201.

4. Turner, M. A., McKinnon, J. J., Wolff, S. K. D. J., Grimwood, D. J., Spackman, P. R., Jayatilaka, D. & Spackman, M. A. (2017). *Crystal Explorer*, Version 17, University of Western Australia, Perth.

5. C. F. Macrae, I. J. Bruno, et al. *Appl.Cryst.* 2008.41.466-470



ПРИЧИНЫ ПОДРОСТКОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И МЕТОДЫ ЕЁ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ

ФИО автора: Джураева Динара Анвар овна

ученица академического лицея при ТГЮУ имени М.Восиковой группы 1.7

Аннотация

Подростковая преступность представляет собой серьёзную социальную проблему, оказывающую влияние на стабильность и безопасность общества. В Республике Узбекистан наблюдается тревожная тенденция роста преступлений, совершаемых несовершеннолетними. Для эффективного противодействия подростковой преступности необходимо детально изучить её причины и разработать действенные методы предотвращения, учитывая особенности национального законодательства и международный опыт.

Причины подростковой преступности

1. Социально-экономические факторы: Низкий уровень жизни, безработица родителей и ограниченный доступ к качественному образованию могут способствовать вовлечению подростков в преступную деятельность. В условиях экономической нестабильности молодёжь может искать альтернативные способы заработка, включая незаконные.

2. Семейные обстоятельства: Неблагополучные семьи, где присутствуют насилие, алкоголизм или наркомания, оказывают негативное влияние на формирование личности подростка. Отсутствие должного внимания и поддержки со стороны родителей часто приводит к девиантному поведению детей.

3. Влияние окружения: Подростки, находящиеся в окружении сверстников с антиобщественными наклонностями, более подвержены совершению преступлений. Желание быть принятым в группе может побудить их к противоправным действиям.

4. Отсутствие досуга и возможностей для самореализации: Недостаток спортивных секций, кружков по интересам и других возможностей для

позитивной самореализации может привести к тому, что подростки ищут острых ощущений в противоправной деятельности.

5. Недостаточный контроль со стороны родителей и образовательных учреждений: Отсутствие надлежащего контроля и внимания со стороны взрослых может привести к тому, что подростки оказываются предоставленными сами себе, что увеличивает риск вовлечения в преступную деятельность.

Статистический анализ подростковой преступности в Узбекистане

Анализ статистических данных свидетельствует о росте преступности среди несовершеннолетних в Узбекистане. В 2020 году общее количество преступлений увеличилось на 34,7% по сравнению с предыдущим годом, причём значительная часть правонарушений была совершена молодёжью. Особенно тревожит тот факт, что в большинстве случаев закон нарушали школьники. Основные виды преступлений среди молодёжи связаны с кражами, мошенничеством и хулиганством.

Законодательные меры по предотвращению подростковой преступности в Узбекистане

В Узбекистане предпринимаются значительные шаги для борьбы с преступлениями среди несовершеннолетних. В 2010 году был принят Закон Республики Узбекистан «О профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних», который определяет основные подходы к профилактике правонарушений среди лиц в возрасте до 18 лет. Основными принципами деятельности по профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних являются законность, гуманность, системность, поддержка семьи и взаимодействие с ней, а также индивидуальный подход к воспитанию несовершеннолетних, находящихся в социально опасном положении.

Кроме того, в 2021 году были внесены изменения в Уголовный кодекс, направленные на усиление защиты прав детей. Также принят Закон «О профилактике правонарушений», который направлен на предупреждение преступности среди несовершеннолетних. Индивидуальная профилактика правонарушений определяется с учётом особенностей личности, её социального

окружения, социально-бытовых условий и образа жизни, иных факторов, характеризующих антисоциальное поведение, склонность лица к совершению правонарушения, а также степень общественной опасности совершённого правонарушения.

Международный опыт предотвращения подростковой преступности

Изучение зарубежного опыта показывает, что комплексный подход к профилактике подростковой преступности включает следующие меры:

1. *Раннее вмешательство и поддержка семьи:* В некоторых странах реализуются программы раннего вмешательства, направленные на поддержку неблагополучных семей и предотвращение развития девиантного поведения у детей.

2. *Образовательные программы и занятость молодёжи:* Создание возможностей для образования и трудоустройства подростков снижает риск их вовлечения в преступную деятельность.

3. *Социальные службы и реабилитационные программы:* Функционирование специализированных социальных служб, предоставляющих поддержку и реабилитационные программы для несовершеннолетних правонарушителей, способствует их ресоциализации и предотвращению рецидивов.

4. *Сотрудничество между государственными и общественными организациями:* Эффективная профилактика подростковой преступности требует тесного взаимодействия между государственными учреждениями, образовательными организациями и общественными объединениями.

Рекомендации по совершенствованию профилактики подростковой преступности в Узбекистане

1. *Усиление семейной политики:* Необходимо разработать и внедрить программы поддержки семей, находящихся в трудной жизненной ситуации, с целью создания благоприятных условий для воспитания детей.

2. *Развитие системы дополнительного образования и досуга:* Создание и поддержка кружков, секций и других форм занятости для подростков позволят направить их энергию в позитивное русло, способствуя развитию навыков и предотвращая вовлечение в преступную деятельность.

3. *Повышение правовой грамотности:* Проведение регулярных мероприятий, направленных на информирование подростков об их правах и обязанностях, а

также о последствиях противоправных действий, способствует формированию законопослушного поведения.

Заключение

Подростковая преступность остаётся одной из значимых социальных проблем в Узбекистане. Её причины многогранны и включают экономические трудности, неблагоприятную семейную обстановку, влияние окружения, отсутствие контроля со стороны родителей и недостаток возможностей для самореализации. Статистические данные свидетельствуют о росте количества преступлений, совершённых несовершеннолетними, что требует незамедлительных мер со стороны государства и общества.

Законодательство Узбекистана направлено на профилактику преступности среди молодёжи, однако для эффективного решения проблемы необходим комплексный подход. Важно усилить семейную политику, развивать систему дополнительного образования и досуга, а также повышать правовую грамотность подростков. Международный опыт показывает, что эффективное предотвращение преступности среди несовершеннолетних возможно только при тесном взаимодействии между государственными органами, образовательными учреждениями, правоохранительными структурами и общественными организациями.

Таким образом, для снижения уровня подростковой преступности в Узбекистане необходимо продолжать совершенствовать законодательство, развивать профилактические меры и создавать условия, при которых молодёжь сможет реализовывать свой потенциал законным и безопасным способом.

Источники

- 1. Закон Республики Узбекистан «О профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних»*
- 2. Уголовный кодекс Республики Узбекистан*
- 3. «Более 2 тыс. узбекских школьников в 2023 году совершили преступления»*
- 4. «Почему растёт преступность среди молодёжи?»*
- 5. Международный опыт профилактики преступности среди несовершеннолетних*

FRAZEOLOGIZMLAR ORQALI MILLIY XARAKTER VA MENTALITETNING NAMOYON BO'LISHI: INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA

Boboxonov Muxammadaziz Shavkatovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Magistratura Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi 2-bosqich magistranti

muhammad7110560@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida qo'llaniladigan frazeologik birliklar orqali milliy xarakter va mentalitetning qanday ifodalanishi tahlil qilinadi. Frazeologizmlar – bu xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va hayot falsafasini o'zida aks ettiruvchi til birliklaridir.

Til har bir millatning ruhiy olamini namoyon etadi. Shu bois frazeologizmlarni solishtirish orqali xalqning fikrlash tarzi, qadriyatlari va ijtimoiy xatti-harakatlariga doir qimmatli ma'lumotlar olinadi. Bu jihatdan frazeologiya – lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Maqolada ingliz va o'zbek tillaridan olingan turli mavzulardagi frazeologik birliklar (mehnat, aqlli bo'lish, omad, yurak, qo'rquv, jur'at) misolida milliy xarakter va mentalitet farqlari ko'rsatib beriladi.

Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillarining frazeologik tizimida mavjud o'xshashliklar va farqlar orqali milliy o'zlikning qanday namoyon bo'lishini aniqlaydi.

Kalit so'zlar. Frazeologizm, milliy xarakter, mentalitet, lingvokulturologiya, ingliz tili, o'zbek tili, til va madaniyat.

Abstract

This article analyzes how national character and mentality are expressed through phraseological units used in English and Uzbek. Phraseologisms are language units that reflect the historical experience, worldview and philosophy of life of the people.

Language reflects the spiritual world of each nation. Therefore, by comparing phraseologisms, valuable information is obtained about the way of thinking, values and social behavior of the people. In this regard, phraseology is the main object of research of linguoculturology.

The article shows the differences in national character and mentality using the example of phraseological units on various topics (work, be smart, luck, heart, fear, courage) taken from English and Uzbek.

The results of the study determine how national identity is expressed through the similarities and differences in the phraseological systems of English and Uzbek.

Keywords. Phraseologism, national character, mentality, linguoculturology, English language, Uzbek language, language and culture.

KIRISH

Til har bir millatning madaniyati, tafakkuri va hayot tarzi bilan bevosita bog‘liq. Ayniqsa, frazeologizmlar milliy tafakkurning ko‘zgusi hisoblanadi. Har bir xalq o‘zining tarixiy, diniy, ijtimoiy tajribasiga asoslanib, hayotiy holatlarni frazeologik shakllarda ifodalagan.

O‘zbek xalqida “ko‘ngli ko‘p”, “qalbi toza”, “qo‘l ochdi”, “yerga qaramadi” kabi ifodalar ko‘proq ijtimoiy xulq, saxiylik, g‘ururga urg‘u bersa, ingliz tilida esa “cold feet”, “break the ice”, “pull someone’s leg” kabi iboralar ijtimoiy muloqot, hazil-mutoyiba va ijtimoiy psixologiyani ifodalaydi.

Frazeologizmlar orqali xalqning qadriyatlar tizimi, dunyoni qanday qabul qilishi, jamiyatdagi o‘zaro munosabatlarga bo‘lgan yondashuvi aniqlanadi.

Shu bois ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillarining frazeologik tizimi orqali milliy mentalitetning qanday namoyon bo‘lishini ochib berishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Lingvist olimlar – B. A. Larin, A. Kunin, V. Mokiyenko, Sh. Rahmatullayev va D. Normurodovlarning ishlarida frazeologizmlarning lingvokulturologik mohiyati chuqur tahlil qilingan. Ayniqsa, A. Kunin ingliz frazeologiyasining semantik tuzilmasini tahlil qilgan.

O‘zbek tilshunosligida Sh. Rahmatullayev frazeologik birliklarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilmaslik kerakligini, ularni milliy ruhda tushunish zarurligini ta’kidlagan.

Til va madaniyat o‘zaro uzviy bog‘liqligini ko‘rsatgan zamonaviy lingvokulturologik tadqiqotlar (masalan, E. Vereshchagin va V. Kostomarovlarning ishlari) frazeologizmlarni madaniyat kontekstida talqin qilishni tavsiya etadi.

Shu nuqtai nazardan, ingliz va o‘zbek frazeologizmlarini solishtirish orqali til orqasidagi xalq ruhiyati, axloqiy-me’yoriy qadriyatlar va milliy xarakterni tahlil qilish imkoniyati ochiladi.

Maqolada qiyosiy-lingvistik va lingvokulturologik tahlil usullari qo‘llanildi. Ingliz va o‘zbek tillaridan olingan 100 dan ortiq frazeologik birliklar tematik guruhlariga ajratilib, ularning semantik tahlili o‘tkazildi.

Tematik guruhlar quyidagicha ajratildi: 1) Emotsional holat (qo‘rquv, jur‘at), 2) Aql-idrok, 3) Ish va mehnat, 4) Ijtimoiy munosabat, 5) Omad va muvaffaqiyat.

Har bir guruhda har ikki tilga xos frazeologizmlar qiyoslab o‘rganildi. Ularning obrazlilik, metaforik ifodasi, tarkibidagi madaniy komponentlar va ideologik mazmuni tahlil qilindi.

Tahlil natijalariga asoslanib, frazeologizmlarda ifodalangan milliy xarakter elementlari (masalan: jur‘at, sabr-toqat, hazilkashlik, pragmatizm) aniqlashtirildi.

NATIJARAR

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilidagi frazeologizmlar ko‘proq hissiy-emotsional boylikka, ijtimoiy munosabatlarga va axloqiy qadriyatlarga yo‘naltirilgan. Masalan: “ko‘ngli sinmoq”, “boshi osmonga yetmoq”, “peshonasiga yozilgan” – taqdir, hissiyot va qadriyatga bog‘liq.

Ingliz tilidagi frazeologizmlar esa ko‘proq harakat, muloqot, individual qaror va ijtimoiy pragmatizmni ifodalaydi: “hit the nail on the head”, “keep your chin up”, “bark up the wrong tree”.

Mentalitet farqi shundan iboratki, o‘zbek xalqida frazeologizmlar orqali jamoatchilik, ichki sabr, va hayot sinovlariga bo‘ysunish motivlari kuchli; ingliz tilida esa mustaqillik, harakatga da‘vat, iroda va realikka urg‘u beriladi.

Biroq, ikki til frazeologiyasida ham umumiyliklar mavjud: masalan, “ko‘zni ochmoq” va “open one’s eyes” (haqiqatni anglash), “yuragi orqaga tortdi” va “lost heart” (qo‘rquv), bu holatlar umuminsonga xos psixologik holatlarni ifodalaydi.

1-jadval. Ingliz va o‘zbek frazeologizmlarida milliy xarakterning aks etishi

№	Mavzu	O‘zbekcha frazeologizm	Inglizcha frazeologizm	Aks etgan milliy xususiyat
1	Jur‘at va qo‘rquv	Yuragi orqaga tortdi	Lose heart	Emotsional holat, ehtiyotkorlik
2	Omad va taqdir	Peshonasiga yozilgan	Written in the stars	Taqdirdan rozi bo‘lish / ishonch
3	Muloqot va yaqinlik	Ko‘nglidan joy oldi	Win someone’s heart	Ijobiy muloqot, mehr-oqibat
4	Hazil va kulgu	Tilini tishladi	Bite one’s tongue	Odob, nazokat / ijtimoiy muvozanat

№	Mavzu	O‘zbekcha frazeologizm	Inglizcha frazeologizm	Aks etgan milliy xususiyat
5	Mehnat va harakat	Qo‘l qovushtirib o‘tirmadi	Roll up one’s sleeves	Ishchanlik, amaliy yondashuv
6	Aql-idrok	Ko‘zi ochildi	Open one’s eyes	Anglash, fikr o‘zgarishi
7	Saxiylik va bag‘rikenglik	Qo‘l ochdi, Ko‘ngli keng	Open-handed, Big-hearted	Mehmondo‘stlik, saxiylik
8	Ogohlantirish	Og‘zidan olov chiqdi	See red	Emotsional reaksiyalar
9	Hayrat yoki qo‘rquv	Ko‘zi koptokday bo‘ldi	Eyes popped out	Kuchli ta’sirga javob
10	Iroda va qat’iyat	Boshi osmonga yetdi	Over the moon	Muvaffaqiyatdan quvonch

XULOSA

Frazeologik birliklar xalq tafakkurining konsentratsiyalashgan shakli sifatida milliy xarakterni chuqur aks ettiradi. Ular orqali xalqning hayotga bo‘lgan qarashi, qadriyati va dunyoqarashi namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilida frazeologizmlar ko‘proq ruhiy holat, axloqiy munosabat va qadriyatlarni aks ettirsa, ingliz tilida ular faoliyat, ijtimoiy harakat va pragmatizmga yo‘naltirilgan.

Bu farqlar xalq mentalitetidagi asosiy jihatlarni anglashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, frazeologizmlarning qiyosiy tahlili tarjima ishlarida, madaniyatlararo muloqotda va xorijiy til o‘rgatishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tavsiya sifatida, til o‘rganish jarayonida frazeologik birliklarga alohida e’tibor qaratish, ularning madaniy asoslarini chuqur tushunishga xizmat qiluvchi darsliklar va lug‘atlar yaratish taklif qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kunin A.V. “Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazyka”. – M.: Vysshaya shkola, 1996.

2. Rahmatullayev Sh. “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
3. Mokiyenko V.M. “Russkaya frazeologiya”. – SPb., 2005.
4. Vereshchagin E.M., Kostomarov V.G. “Yazyk i kultura”. – M.: Indrik, 2005.
5. Abdulxayev D. “Frazeologizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari”. – Filologiya fanlari nomzodi diss., 2018.
6. Cambridge Idioms Dictionary. Cambridge University Press, 2021.



МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ТЕХНИЧЕСКОЙ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СРЕДСТВАМИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Мурадов Салахиддин Джуманазарович.

Университет науки и технологий

Старший преподаватель кафедры «Точные науки»

saloxiddinmuradov2@gmail.com

Salohiddin.muradov.78@mail.ru

Аннотация: В статье говорится о важности организации учебного процесса так, чтобы учащиеся могли активно, с интересом и увлечением работать на уроке, использовать методы развития технической творческой компетентности учащихся посредством цифровых технологий, чтобы учащиеся могли видеть результаты своей работы и оценивать их.

Ключевые слова: образования, компетентности; творческой компетентность; цифровых технологий ЦТ-методика.

На современном этапе в условиях информатизации всех сфер развития общества, в Узбекистане, так же, как и в других странах, особые требования предъявляются к уровню профессионального мастерства преподавателей образовательных учреждений различных форм как общего, так и профессионального образования.

В поиске новых подходов к организации системы обучения важно осмыслить не только внешние изменения, обусловленные открывающимися возможностями информационно-образовательной среды, но и внутренние, связанные с необходимыми изменениями в деятельности педагога XXI века. В качественно новом цифровых информационно технологических пространстве, обеспечивающем широкий доступ к источникам информации, изменяются процессы восприятия и усвоения цифровых информации, операционная основа действий, представления о когнитивных стратегиях обучения.

Бурное развитие новых цифровых информационных технологий и их внедрение в последние годы наложили отпечаток на развитие личности обучающегося. Высшее учебное заведение — это часть общества, и в ней отражаются те же проблемы, что и во всей стране. Поэтому очень важно организовать процесс обучения так, чтобы обучающийся активно, с интересом и увлечением работал на занятиях, видел плоды своего труда и мог их оценить. Помочь преподавателю в решении этой трудной задачи может сочетание традиционных методов

обучения и современных цифровых информационных технологий, в том числе и компьютерных.

Для современного учителя владение предметом обучения недостаточно: он должен быть компетентен в работе с инновационными цифровыми технологиями как важнейшими элементами, способствующими повышению эффективности учебного процесса. Только цифровая информационно коммуникационная и техническое компетентность позволит молодому специалисту добиться оптимального уровня знаний обучаемых, поможет правильно организовать собственную работу и работу студенческого ученического коллектива на занятиях и во вне его.

В современных условиях интенсивной цифровой информатизации всех сфер образования становится более очевидной значимость педагогической, профессиональной и информационно-коммуникационной компетентности современного педагога, деятельность которого сейчас все более связывается с использованием новых цифровых информационных технологий .

Под развитием методики развития технической творческой компетентности средствами цифровых технологий в процессе обучение студентов мы понимаем интегральную способность личности, обеспечивающую необходимый для каждого студента уровень эффективности использования цифровых информационно-коммуникационных технологий для самостоятельного решения профессионального и педагогического задач. Такое понимание цифровых информационно-коммуникационной компетентности включает в себя не только владение определенной системой знаний, умений и навыков в информатике и использования ИКТ в обучении, но и развивает цифровой информационно-технологические навыки решения профессиональных задач с использованием новых информационных технологий, развитие технической творческой компетентности, формирует три основные подструктуры личности: мотивацию, интеллектуальные способности и опыт .

Исследования, проведенные Н. В. Кузьминой и В. Н. Софьиной, показали, что профессиональная компетентность имеет сложную структуру, содержащую определенные компоненты, среди которых выделяются: дифференциально-психологическая; социально-психологическая; аутопсихологическая; акмеологическая; управленческая; специальная и информационно-технологическая компетентность (ИТ-компетентность).

На основе выделенных структурных компонентов профессиональной компетентности могут формироваться любые модели компетентности специалистов, в том числе и педагогов.

По-нашему мнению, говоря о структуре профессиональной компетентности педагога, следует уточнить используемую терминологию в отношении термина ЦИКТ-компетентность. Мы считаем более целесообразным и точным вместо термина ИТ-компетентность (информационно технологическая компетентность) использовать термин ЦИКТ-компетентность (цифровое информационно-коммуникационная компетентность) в связи с тем, что рассматриваем методика развития технической творческой компетентности средствами цифровых технологи, ЦИКТ-компетентность как один из методов развитие технической творческой компетентности у студента.

Под методика развития технической творческой компетентности средствами цифровых технологи ЦИКТ-компетентностью педагога обычно понимают способность к выполнению профессионально педагогической деятельности с помощью цифровых информационно коммуникационных технологий (то есть, решение любых видов педагогических задач, предполагающих использование компьютера и программ во всех видах деятельности педагога в процессе обучения, в управленческой деятельности, в области самообразования и др.).

Чаще всего исследователи выделяют два вида методика развития технической творческой компетентности средствами ЦИКТ: базовую и предметно-ориентированную (профессиональную, специальную). Под базовой методика развития технической творческой компетентности средствами ЦИКТ-мы понимаем способность учителя использовать общие знания о цифровой компьютерное технологии и умения в области компьютерных технологий (чаще всего востребованные при использовании прикладных программ общего назначения в качестве технической инструмента творческой деятельности педагога). Этот уровень компетентности является необходимым, но явно недостаточным для решения всех видов профессионального задач. Учитель должен еще обладать дидактическими и методическими знаниями и умениями в области проектирования и организации образовательного процесса с использованием ЦИКТ, то есть владеть специальной технической творческой компетентности с использованием ЦИКТ.

Специальную методика развития технической творческой компетентности средствами ЦИКТ учителя-предметника мы понимаем как готовность педагога к

обеспечению процесса изучения учащимися любого учебного предмета с использованием ЦИКТ. Очевидно, что для организации процесса обучения с использованием методика развития технической творческой компетентности средствами ЦИКТ у учителя должны быть сформированы оба уровня компетентности, как базовый, так и специальный.

В практике методика развития технической творческой компетентности средствами ЦИКТ обучения называют все технологии, использующие специальные технические цифровые информационные средства (ЭВМ, аудио, видео). Сочетание методика развития технической творческой компетентности средствами ЦИКТ связано с двумя видами технологий: цифровые информационными коммуникационными и технической творческой компетентности. Важно различать ЦИКТ-грамотность и технической творческой -компетентность.

ЦИКТ-грамотность — знания о том, что из себя представляет

персональный владения компьютера, программные продукты, каковы их функции и возможности, это умение «нажимать на нужные кнопки», знание о существовании компьютерных сетей (в том числе Интернета). ЦИКТ-компетентность — не только использование различных информационных инструментов (ЦИКТ-грамотность), но и эффективное применение их в профессионально педагогической деятельности.

Примерный перечень содержания технической творческой компетентности -я (по мере развития компетентности от базового к повышенному уровню):

-Знать перечень основных существующих технической творческой компетентности и ЦИКТ-грамотность, пособий по предмету, практика, пособий по предмету опыт ученых, учебники и методические и практические занятия по инновациям производительности труда и цифровым технологиям. (на дисках и в Интернете): электронные учебники, атласы, коллекции цифровых образовательных ресурсов в Интернете и т.д.

- Уметь находить, оценивать, отбирать и демонстрировать информацию из ЦОР (например, использовать материалы электронных учебников и других пособий на дисках и в Интернете) в соответствии с поставленными учебными задачами.

- Устанавливать используемую программу на демонстрационный компьютер, пользоваться проекционной техникой, владеть методиками создания собственного электронного дидактического материала.

- Уметь преобразовывать и представлять информацию в эффективном для решения учебных задач виде, составлять собственный учебный материал из имеющихся источников, обобщая, сравнивая, противопоставляя, преобразовывая различные данные.

- Уметь выбирать и использовать ПО (текстовый и табличный редакторы, программы для создания буклетов, сайтов, презентационные программы (Power Point, Canva, Prezi, Flash) для оптимального представления различного рода материалов, необходимых для учебного процесса: материалы для урока, тематическое планирование, мониторинги по своему предмету, различные отчеты по предмету, анализ процесса обучения и т.д.

Уметь применять ЦИКТ-методики (новые цифровых информационных технологии и Интернет) — это методики проведения уроков, объединенных одной темой, с использованием ЦИКТ. Они содержат ссылки на электронные материалы и вебсайты, полезные при проведении уроков на заданную тему.

- Эффективно применять инструменты организации учебной деятельности учащегося (программы тестирования, электронные рабочие тетради, электронные платформы, системы организации учебной деятельности учащегося и т.д.).

- Уметь сформировать цифровое собственное портфолио и портфолио учащегося.

- Уметь грамотно выбирать форму передачи информации обучающимся, коллегам, администрации ОУ: электронная почта, социальная сеть, сайт (раздел сайта), лист рассылки (список рассылки — используется для рассылок

почты, предоставляет средства автоматического добавления и удаления дросов из списка), форум, Wiki-среда (Вики (Wiki) — гипертекстовая среда

для коллективного редактирования, накопления и структуризации письменной информации).

- Организовывать работу обучающихся в рамках сетевых коммуникационных проектов (олимпиады, конкурсы, викторины и т.д.), дистанционно поддерживать учебный процесс (по необходимости). Для того, чтобы учитель мог выполнять все вышеперечисленное, необходима организация методической, организационной, технической и мотивационной поддержки. На практике педагоги не очень активно используют ЦИКТ на уроках по ряду объективных причин:

- Не все учителя психологически готовы к использованию ЦИКТ в образовательном процессе.

- Недостаточное количество электронных средств, способных адекватно решать педагогические задачи учителя при изучении конкретной темы.

- Нет четких методических рекомендаций по использованию имеющихся на отечественном рынке электронных средств обучения.

- Низкий уровень владения программными средствами для создания собственных электронных средств обучения (презентаций, электронных учебников, тренажеров и т.д.).

- Лимит времени у преподавателя для создания собственного электронного дидактического материала, а также для изучения, разработки и внедрения новых компьютерных методик обучения.

Базовая информационно-коммуникационная компетентность педагога сегодня является наиболее разработанной, здесь у авторов нет существенных противоречий. Что касается специальной технико-ЦИКТ-компетентности учителя предметника, то она нуждается в более основательной проработке, особенно в той части, которая касается структуры и критериев выделения компонентов этой структуры.

В соответствии с этапами деятельности, которую педагог должен выполнять в процессе использования ЦИКТ при изучении предмета, мы в составе специальной ЦИКТ и технической творческой компетентности учителя-предметника выделяем три структурных компонента (вида) компетентностей: предметная ЦИКТ-компетентность; методическая ЦИКТ-компетентность; технической творческой компетентности средствами ЦИКТ обучения называют все технологии, использующие специальные технические цифровые

информационно технологическая(ЦИКТ)-компетентность. Каждая из названных специальных компетентностей формируется в соответствующих учебных курсах (информатики, педагогика психалогия конкретного предмета и методики его преподавания), а также в курсах, цель которых состоит в формировании и развитии специальной технической творческой-компетентности. Но, как показывает анализ нашей практики, названные выше учебные курсы не справляются в полной мере с задачей формирования у студентов специальной ЦИКТ-компетентности и технической творческой-компетентности.; необходима большая целенаправленная самостоятельная работа студентов по формированию интеграционных умений в области информатики и методики конкретного предмета и методики его преподавания в школе, использования ЦИКТ в обучении школьников. Выделены факторы акмеологической среды творческой самостоятельной работы студентов и субъективные факторы Все они будут способствовать развитию профессиональной и цифровое ицицифровое информационно-технологической, технической творческой компетентности студентов.

Использованная литература

1. Statistical analysis and forecasting of cotton yield dynamics in Kashkadarya region of Republic of Uzbekistan. Kudrat Ruzmetov, Akhtamjon Faiziev, Salakhiddin Murodov, Odina Kurbonbekova

E3S Web of Conf. 389 03080 (2023) DOI: 10.1051/e3sconf/202338903080

<https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338903080>

2. Khasanov A.A., Khasanova S.S. Theoretical approaches to the creation of pedagogical concepts // American Journal of Pedagogical and Educational Research 10 (2023): 185-190.

3. Khasanova, S. S. D., & Khasanov, A. A. (2023). Theoretical approaches to creation of pedagogical concepts. Innovative Development in Educational Activities, 2(6), 16-22.

4. Muradov , S. D. (2023). TALABALARNING TEXNIK IJODKORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(14), 53–56. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4380>

5. Muradov.S.D. TALABALARNING TEXNIK IJODKORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 53-56.
- 6.Muradov, Salaxiddin Djumanazarovich. "TALABALARNING TEXNIK IJODKORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA." *Educational Research in Universal Sciences* 2.14 (2023): 53-56.
- 7.Muradov, S. D. (2023). TALABALARNING TEXNIK IJODKORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(14), 53-56.
- 8.Салахиддин Джуманазарович Мурадов. [ТАЛАБАЛАРНИНГ ТЕХНИК ИЖОДКОРЛИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТ ШАРОИТЛАРИ: doi. org/10.5281/zenodo. 10586587](https://doi.org/10.5281/zenodo.10586587)// ILM-FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI. 2024/2/1.
- 9.Мурадов Салахиддин Джуманазарович. (2024, январь 30). RAQAMLI TECHNOLOGIYALAR-TALABALARNING TEXNIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRUVCHI VOSITA SFATIDA. (4CSMISOLIDA). TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH VA UNI BOSHQARISH TECHNOLOGIYALARI, Uzbekistan. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10588106>
- 10.А. А. Витухновская, Т. С. Марченко. Структура специальной ИКТкомпетентности учителя-предметника // Герценовские чтения. Начальное образование. Т. 1. Начальное образование современной России. СПб.: Изд-во ВВМ, 2010. С. 282–288
- 11.Зимняя И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата современного образования [Электронный ресурс] // Интернет-журнал «Эйдос». <http://www.eidos.ru/journal>.

BOG‘CHA YOSHI BOLALARDA FOBIYANING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sayitova Umida Hikmatillo qizi

Alfraganus universiteti,

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası

dotsent v.b., psixologiya fanlari

bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Anotatsiya. Maktabgacha yosh davri bolada psixik jarayonlarni jadal o‘shish davri hisobladi. Aynan shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar fobiyaga bo‘lgan munosabatni qochish xissi, kuchli xavotir va vahima bilan namoyon qiladi. Bolalarning fobiyaga bo‘lgan munosabatining shakllanishiga ota-onalar sezilarli ta‘sir ko‘rsatadilar. Ushbu maqolada maktabgacha yosh davri boladagi fobiya haqida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: fobiya, qo‘rquv, faoliyat, maktabgacha yosh davri, xavotir, munosabat, psixika, nilish jarayonlari.

Kirish. Bola ilk yoshdan maktabgacha davrga o‘tgach, unda juda katta o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi. Bolada faoliyat doirasi kengayadi, mustaqilligi ortadi, hatti-harakatlari ham boshqacha mazmunga ega bo‘la boshlaydi, bog‘chaga borishi orqali muayyan pedagog tomonidan muayyan dastur asosida tarbiyalana boshlaydi. Albatta bola hayotidagi bu o‘zgarishlar uning jismoniy va psixik kamol topishiga jiddiy ta‘sir etadi, uning keyingi hayotini belgilab beradi.

Bolaning nerv sistemasi ham o‘shib boradi. Lekin bog‘cha yoshidagi bolalarda qo‘zg‘alishning ustunligi saqlanib qoladi, muvaqqat bo‘g‘lanishlar ham bir necha marotaba takrorlashdan so‘ng kuchsiz hosil bo‘ladi. Bolada bilish jarayonlari ham avvalgidan ancha murakkablashganidek, boladagi qo‘rquv va fobiyalar ham o‘ziga yarasha murakkablashadi, yaqqol namoyon bo‘la boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalardagi fobiya va qo‘rquvni ko‘pchilik psixolog olimlar ishlarida ko‘rish mumkin. Bolalar fobiyasi atrofimizda, jamiyatda ko‘p uchraydigan holatlardan biri hisoblanadi. Fobiya borasida chet el olimlari ko‘pgina samarali ishlarni olib borishgan va albatta o‘zbek olimlarining ham ilmiy adabiyotlarida fobiya haqida to‘xtalishgan. Ko‘p ilmiy

adabiyotlarda ham olimlar orasida ham birinchi navbatda fobiya va qo'rquvning farqi haqida tushunchaga ega bo'lish kerakligi takidlanadi. Fobiya va qo'rquv bir biriga yaqin va o'z navbatidan bir biridan farq qiluvchi tushuncha hisoblanadi.

Muhokama. Maktabgacha tarbiya yoshi – bu bolalikning 3-7 yoshlik davrlarini o'z ichiga oladi. Aynan shu davrda bolada hayotiga ta'sir qiladigan ko'plab o'zgarishlar ro'y beradi. Albatta bola ham hissiy, ham ruhiy, ham jismonan ham ijtimoiy jihatdan o'sadi rivojlanadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlari rivojlanadi hamda shaxsiy individual xususiyatlari tarkib topa boshlaydi. Rus pedagoglaridan P.F.Lesgaftning fikricha, insonning maktabgacha yoshdagi davri, shunday bir davrki, ana shu davr mobaynida kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo'lishi belgilanadi va axloqiy sifatlarning asoslari yuzaga keladi.[1]

Haqiqatdan ham bolaning maktabgacha yosh davri shu qadar mazmundor va faol davrdirki, bu davr bolaning kelgusida o'sishida albatta o'z aksini qoldiradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi davr ta'sir o'tkazish kuchi jihatidan g'oyat mas'uliyatlidir.

Ko'pchilik psixologik adabiyotlarni o'rganib fobiya va qo'rquv haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Avvalo qo'rquv nima degan savolga javob beradigan bo'lsak. Qo'rquv deb, subyet o'zining xotirjam hayot kechirishiga ziyon yetishi mumkinligi haqida unga tahdid solayotgan yoki tahdid solishi mumkin bo'lgan xavf-xatar haqidagi xabarni olishi bilan paydo bo'ladigan salbiy hissiy holat. Eng muhim ehtiyojlari bevosita blokada qilinishi natijasida ro'y beradigan iztirob chekish hissiyotidan farqli o'laroq kishi qo'rquv hissiyotiga berilganda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkinligini faqat extimoliy tarzda biladi va ushbu prognozga binoan harakat qiladi. Shu o'rinda qo'rquv hissiyoti stenik tusda ham, astenik tusda ham bo'lishi, yoxud hissiy zo'riqish, yoxud ruhan astoydil tushkunlikka berilgan va xavotirlangan tarzda yoki affektiv holatga tushgan tarzda kechishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Fobiya va qo'rquv haqidagi eng birinchi fikrlarni M.Fasmera qarashlarida kuzatish mumkin. Fobiyaning birinchi klinik tavsifini Gippokrat balandlikdan qo'rqishdan aziyat chekkan bemorda tasvirlagan.[2]

I.M.Xakimovanning "Deviant xulq-atvor psixologiyasi" o'quv qo'llanmasida qo'rquvga "Qo'rquv bu- odamning o'ziga yoki yaqin kishilariga taalluqli bo'lgan haqiqiy yoki xayoliy xavf- xatarga nisbatan qaytaradigan emotsional javob reaksiyasidir." deya tarif beriladi.[5]

Bolalik davri instinktiv va ijtimoiy vositachilik qo'rquvlari kesishadigan davr hisoblanadi. Qo'rquvning instinktiv, asosan hissiy shakllari bu hayotga affektiv ravishda qabul qilingan tahdid sifatida qo'rquvning o'zi, va qo'rquvning ijtimoiy

shakllari esa uning intellektual qayta ishlanishi, qo'rquvning o'ziga xos ratsionalizatsiyasidir.

R.V.Ovcharova qo'rquvni quyidagi turlarga ajratadi: yosh qo'rquvlari hissiy jihatdan sezgir bolalarda kuzatiladi va ularning aqliy va shaxsiy rivojlanishining xususiyatlarini aks ettirish sifatida qayd etiladi.[4] Ular quyidagi omillar ta'sirida paydo bo'ladi: ota-onalarda qo'rquvning mavjudligi, bola bilan munosabatlarda tashvishli bo'lish, xavf-xatarlardan haddan tashqari himoyalash va tengdoshlar bilan muloqotdan izolyatsiya qilish; bir jinsdagi ota-onalar tomonidan ko'plab taqiqlar yoki qarama-qarshi jinsdagi ota-onalar tomonidan bolaga to'liq erkinlik berish, shuningdek, oiladagi kattalar tomonidan ko'plab tahdidlar, yoki bunday imkoniyatning yo'qligi, bir jinsdagi ota-onalar bilan o'z rolini aniqlash imkoniyatining yo'qligi, asosan o'g'il bolalar orasida. Ota-onalar o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar, qo'rquv kabi ruhiy jarohatlar, tengdoshlar va kattalar bilan muloqot qilish jarayonida qo'rquv bilan psixologik zararlash ham qo'rquvning paydo bo'lishiga ta'sir qiladi.[3]

Nevrotik qo'rquvlar katta hissiy intensivlik va zo'riqish, uzoq davom etishi yoki doimiyligi, xarakter va shaxsiyatning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, boshqa nevroitik kasalliklar bilan o'zaro bog'liqlik, qo'rquv obyektidan qochish bilan tavsiflanadi. Nevrotik qo'rquvlar uzoq davom etgan va hal qilinmagan tajribalar natijasi bo'lishi mumkin. Ko'pincha, bu tarzda sezgir bo'lgan, ota-onalari bilan munosabatlarda hissiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradigan, oiladagi siqilishlar yoki nizolar tufayli o'z qarashlarini buzgan bolalar ko'proq qo'rqishadi. Bu bolalar xavfsizlik, hokimiyat va sevgi uchun kattalarga tayana olmaydi. Maktabgacha kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilishda zaruriy tajribaga ega bo'lmagan bolalar o'ziga ishonchsiz, kattalar umidlarini oqlamaslikdan qo'rqadi, o'qituvchidan qo'rqadi.

Psixologiyada o'z o'rniga ega bo'lgan yo'nalish, psixoanaliz yo'nalishi asoschisi Zigmund Freyd qo'rquvni psixologik himoya mexanizmlari qatoriga qo'shadi. Qo'rquv xavf-xatardan himoyalalanish va undan qochish yo'llarini izlashga undovchi to'g'ri emotsional holat hisoblanadi. Qo'rquv sababli inson xavf-xatardan uzoqlashadi va hayoti uchun xavfsiz holatni tanlaydi. Hech qachon qo'rquvni his qilmaslik mumkin emas. Qo'rquv va xavotirning yo'qligi ham psixik buzilish hisoblanadi. Zigmund Freyd "Qo'rquv nevrozi" atamasi ham qo'llaydi. U qo'rquvni quyidagi shakllarga ajratadi: 1) "yengil qo'rquv" tashvish-mazmunsiz qo'rquv. 2) qo'rquv-xavfni kutish holati 3) qo'rqish(боязнь)-ma'lum bir narsadan qo'rqish holati 4) fobiya-muayyan obyekt yoki hodisadan qo'rqish, yengib bo'lmash darajadagi obsesif qo'rquv. Freydning fikriga ko'ra, fobiya paydo bolishining asosiy sababi bolalalik davrda olingan psixologik travma hisoblanadi. Men (Ego) tomonidan psixologik ximoya

tufayli ongsiz impulslarni (Id) amalga oshira olmasligi fobiyaning paydo bo'lishiga olib keladi. Freyd shuni ham ta'kidlaydiki, fobiyalar qulay sharoitda rivojlanishi va yomonlashishi mumkin.[3]

Natiha va tahlil. Fobiya nima u qanday holat degan savolga javob beradigan bo'lsak. Fobiya-bu, biror vaziyat, hodisa, predmetga nisbatan vujudga keladigan birmuncha turg'un va asossiz qo'rquvdir. Fobiyalar real xavf bo'lmagan holatda ham paydo bo'ladi, ya'ni fobiya aziyat chekuvchi kishilar fobiyaga sabab bo'ladigan hodisa va predmetni o'ylaganlarida, tasavvur qilganlarida ham ularni qo'rquv va vahima qamrab oladi. Misol uchun balandlikdan qo'rqadigan odam balandlikka birinchi marotaba chiqqanda unda qo'rquv paydo bo'ladi. Ikkinchi marotaba chiqqanda esa bu qo'rquvni yenga olishi mumkin. Fobiya holatida esa birinchi marotaba qo'rquvni his qiladi va ikkinchi marta balandlikka chiqqa olmaydi. Xatto bu haqida o'ylaganda ham uni vahima bosadi. Kishini balandlikka chiqqishga majburlansa og'ir ruhiy jarohat olib, hushdan ketish holatigacha borishi mumkin.

Fobiya miyaga mustahkam o'rnatilib, doimiy qo'rquv, vahima holatlarini yuzaga keltiradi. Bunday holatni aqlan nazorat qilib bo'lmaydi. Fobiya vaqtida kishi o'z hatti harakatlariga javob bera olmaydi va o'zini boshqara olmaydi. Fobiya qo'rquvdan farqli o'laroq kuchli va turg'un holda namoyon bo'lishi, qo'rquvni yuzaga keltiruvchi obyektlardan qochish istagining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Yuqoridagilardan tashqari fobiyaning turlarga ajratilgan. Misol uchun ijtimoiy fobiya, agorofobiya, gematofobiya va h.k. Xattoki, insonlar orasida fobofobiya ya'ni, fobiya bo'lib qolishdan qo'rqish holatlari ham aniqlangan. Fobiyaga duchor bo'lgan odam qo'rquvning asossizligini biladi lekin, bu qo'rquvdan xalos bo'la olmaydi. Bunday yopishqoq qo'rquvlarning paydo bo'lish ehtimoli har bir insonda mavjuddir. Shu sababli ham fobiyaning turli ko'rinishlaridan aziyat chekayotgan insonlar sayyoramiz aholisining 10-11%ini tashkil etadi. Insonlar orasida juda ko'p uchraydigan fobiyalarga misol tariqasida; uyida yong'in chiqqishdan, tok zarbasidan, ifloslikdan, ish faoliyatini yo'qotib qo'yishdan, ishni boshlashdan, qarama qarshi jins vakillaridan, yolg'iz yurishdan, odamlar gavjum joydan qo'rqish kabilarni aytishimiz mumkin. Shu o'rinda savol tug'iladi bular oddiy qo'rquv yoki xavotir bo'lishi mumkinku? Albatta yuqoridagi holatlar oddiy qo'rquv yoki xavotir ko'rinishida namoyon bo'ladi. Lekin bunday holatlar haqidagi o'y-fikrlar miyamizni band etishi, qattiq qo'rquvni hosil qilishi, hatto o'sha narsaning nomini eshitish va rasmini ko'rish ham insonning daxshatga solishga sabab bo'lishi va eng asosiysi bunday yopishqoq qo'rquvdan inson o'z iroda kuchi orqali xalos bo'la olmasligi fobiyaga xos xususiyatlardandir.

Ba'zi adabiyotlarda fobiyani ruhiy buzilish turlari tarkibigabiga kiritiladi. I.M.Xakimovanning "Deviant xulq-atvor psixologiyasi" o'quv qo'llanmasida fobiya ruhiy buzilishlar turlari tarkibiga kiritilib, fobiya- bu shiddatiga ko'ra kuchli tashvishlar, bo'rtirib ko'rsatilgan asossiz qo'rquvlaridir degan tarif beriladi. Yuqorida ko'rsatilgan tarifga ko'ra fobiya jiddiy tusdagi, etiborsiz qoldirib bo'lmaydigan psixologik holat hisoblanadi.[5]

A.I.Zaxarov tomonidan keltirilgan qo'rquvning tasnifini eng to'liq deb hisoblash mumkin:[3]

Tabiatan: tabiiy, ijtimoiy, vaziyatli, shaxsiy.

Reallik darajasiga ko'ra: haqiqiy va xayoliy.

Intensivlik darajasiga ko'ra: o'tkir va surunkali.

Qo'rquv kuchli ifodalangan tuyg'u bo'lishiga qaramay, uning odatiy, tabiiy yoki yoshga bog'liq xarakterini va patologik darajasini farqlash kerak

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin bolalarning normal o'sishiga fobiyalar salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalarda fobiyaning kelib chiqishiga sabab esa oilaviy muhitning noto'g'ri yo'lga qo'yilganligidir. Bolalarda qo'rquvning mavjudligi tabiiy holdir. Agar qo'rquv obsesiv va daimiy bo'lmasa normaldir. Yoshga mos ravishda mavjud bo'ladi va yo'qoladi. Lekin qo'rquv barqaror va yosh qarab yo'qolmasa u fobiya aylanadi, bu esa bolaning normal rivojlanishiga, o'sishiga, moslashishi va ijtimoiylashishiga halal beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Keizer M. B. Child Behavioral Inhibition, Parental Overcontrol, and Parental Anxiety as Predictors of Adolescent Anxiety : Thesis for the Degree of Master of Science in Psychology / M. B. Keizer. - 2012.
2. Чутко Л С. Когнитивные нарушения у детей с тревожно-фобическими расстройствами / Л. С. Чутко [и др.] // Журн.неврологии и психиатрии. - 2011.
3. Захаров А. И. Дневные и ночные страхи у детей. Сер. Психология ребёнка / А. И. Захаров. - СПб. : СОЮЗ, 2000.
4. Овчарова Р. В. Психологические особенности материнства в неполной семье / Р. В. Овчарова, М. А. Мягкова // Журн. теория и практика общественного развития. - 2013.
5. I.M.Xakimova. Deviant xulq-atvor psixologiyasi.- Toshkent,2014.

IQLIM O'ZGARISHLARINING EKSPORT TARKIBIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH

Xurramov Ramazon Allayor o'g'li

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti

“Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasida o'qituvchisi

tel: +998-33-507-97-95, e-mail: ramazon_xurramov@tues.uz

Annotatsiya

Mazkur maqolada iqlim o'zgarishlarining O'zbekiston eksport tarkibiga ko'rsatayotgan ta'siri iqtisodiy-analitik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Ekonometrik modellashtirish usullari asosida eksport mahsulotlarining hajmi va tarkibidagi o'zgarishlar bilan iqlim omillari – harorat, yog'ingarchilik va qurg'oqchilik darajalari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi. Tadqiqot 2010–2024 yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan. Olingan natijalar eksport siyosatini iqlim omillariga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Ushbu maqola natijalari iqlimga sezgir mahsulotlar – qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, paxta va ichimlik suvi eksportining iqlim ko'rsatkichlariga qanchalik bog'liqligini aniqlashga qaratilgan. Bundan tashqari, iqlim o'zgarishlari tufayli eksport geografiyasidagi va turlari bo'yicha sezilarli siljishlar aniqlangan.

Tadqiqotda OLS (oddiy eng kichik kvadratlar) regressiya modeli va panel ma'lumotlar modeli qo'llanilib, haroratning o'rtacha darajasi 1°C ga oshganda eksportdagi ayrim segmentlarning pasayishi ko'rsatilgan. Bu esa iqlim bilan bog'liq xavf-xatarlarni hisobga olgan eksport strategiyalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Maqola so'ngida eksport salohiyatini oshirish uchun iqlimga chidamli ishlab chiqarish tarmoqlari va texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari atrof-muhit va iqtisodiy siyosat o'rtasidagi uzviy aloqani ochib beradi.

Kalit so'zlar. Iqlim o'zgarishi, eksport tarkibi, ekonometrik modellashtirish, regressiya, qishloq xo'jaligi, eksport strategiyasi, O'zbekiston, harorat, panel ma'lumotlar, iqlim ta'siri.

Abstract

This article analyzes the impact of climate change on the export structure of Uzbekistan from an economic and analytical perspective. Based on econometric

modeling methods, the relationship between changes in the volume and composition of export products and climatic factors - temperature, precipitation and drought levels - is determined. The study was carried out on the basis of statistical data for the period 2010-2024. The results obtained indicate the need to adapt export policy to climatic factors.

The results of this article are aimed at determining the extent to which the export of climate-sensitive products - agricultural products, food, cotton and drinking water - depends on climatic indicators. In addition, significant shifts in the geography and types of exports due to climate change were identified.

The study used the OLS (ordinary least squares) regression model and the panel data model, which showed a decrease in certain segments of exports when the average temperature increased by 1°C. This requires the development of export strategies that take into account climate-related risks. The article concludes with recommendations for developing climate-resilient production sectors and technologies to increase export potential. The research findings reveal the inextricable link between environmental and economic policies.

Keywords. Climate change, export composition, econometric modeling, regression, agriculture, export strategy, Uzbekistan, temperature, panel data, climate impact.

KIRISH

So‘nggi yillarda global miqyosda iqlim o‘zgarishlari jiddiy iqtisodiy oqibatlariga olib kelmoqda. Haroratning o‘shishi, qurg‘oqchilik, sel va boshqa iqlim xavf-xatarlarining kuchayishi mamlakatlar eksport strategiyalarini qayta ko‘rib chiqishga undamoqda. O‘zbekiston kabi agrar yo‘nalishli iqtisodiyotlarda bu holat yanada dolzarb bo‘lib bormoqda.

Eksport – mamlakat iqtisodiyoti barqarorligining asosiy indikatorlaridan biri bo‘lib, uning tarkibi iqlim sharoitlariga bevosita bog‘liq. Ayniqsa, meva-sabzavot, paxta, don, uzum, qand lavlagi kabi mahsulotlar eksporti iqlim omillari ta‘sirida yildan-yilga o‘zgarib bormoqda.

Mamlakatimizda eksport tahlili ko‘pincha iqtisodiy omillar – narxlar, talab, ishlab chiqarish hajmi asosida olib boriladi. Biroq ushbu maqolada iqlim omillarining ham ta‘sirini statistik modellar orqali aniqlashga harakat qilinadi. Shu yo‘l bilan, iqlim va iqtisodiyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ochib beriladi.

Maqolaning asosiy maqsadi – iqlim o‘zgarishlarining eksport mahsulotlari tarkibiga qanday ta‘sir ko‘rsatayotganini ekonometrik usullar asosida aniqlash, va

ushbu ta'sirni hisobga olgan holda eksport siyosatini takomillashtirish yo'llarini taklif qilishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xalqaro miqyosda iqlim o'zgarishlarining iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri ko'plab ilmiy ishlar orqali yoritilgan. Masalan, Stern Review (2006) hisobotida iqlim o'zgarishlarining global YAIMga salbiy ta'siri yillik 5–20% gacha yetishi mumkinligi qayd etilgan. Shu bilan birga, eksportga iqlim ta'siri masalasi so'nggi yillarda yanada chuqur tahlil qilinmoqda.

BMTning Iqlim o'zgarishlari bo'yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi (IPCC) hisobotlarida oziq-ovqat xavfsizligi, suv resurslari va qishloq xo'jaligiga iqlim ta'siri keng yoritilgan. Ushbu yo'nalishlar orqali eksport hajmi va tarkibida ham o'zgarishlar ro'y beradi. Biroq ko'plab tadqiqotlarda iqlim–eksport bog'liqligi statistik jihatdan to'liq modellashtirilmagan.

O'zbekistonda bu boradagi tadqiqotlar cheklangan. Bosh statistik boshqarmaning yillik hisobotlarida eksport hajmlari va mahsulot turlari haqida ma'lumotlar mavjud, biroq ular iqlim faktorlari bilan bog'lanmagan. Shu bois, ushbu maqola mavjud bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Yevropa Ittifoqi va Jahon bankining so'nggi dasturlarida esa O'zbekiston eksport salohiyatini oshirish uchun ekologik barqaror strategiyalar ishlab chiqilishi zarurligi ta'kidlangan. Bu holat ham ushbu mavzuning dolzarbligini oshiradi.

Tadqiqotda 2010–2024 yillar oralig'idagi O'zbekiston eksporti va iqlim ko'rsatkichlari bo'yicha yillik statistik ma'lumotlar asos qilib olindi. Asosiy ko'rsatkichlar: eksport hajmi (umumiy va toifalar bo'yicha), haroratning o'rtacha yillik qiymati, yog'ingarchilik miqdori, qurg'oqchilik indeksidir.

Ekonometrik tahlil uchun OLS regressiyasi va panel ma'lumotlar (region–yil) asosidagi regressiya modellari qurildi. Modelda eksport hajmi – bog'lanuvchi o'zgaruvchi, iqlim ko'rsatkichlari esa mustaqil o'zgaruvchilar sifatida tanlandi. Tahlil STATA dasturi orqali amalga oshirildi.

Regressiya natijalari harorat 1°C ga oshganida, paxta va meva eksportida o'rtacha 3.2% kamayish kuzatilishini ko'rsatdi. Shuningdek, yog'ingarchilik ko'rsatkichining kamayishi ham eksport hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunda viloyatlar kesimidagi tafovutlar ham hisobga olindi.

Modelning R² darajasi 0.71 bo'lib, tushuntirish darajasi yuqori ekani ko'rsatildi. Multikolinearlik, autokorrelyatsiya va gomoskedastiklik testlari yordamida model barqarorligi tekshirildi va natijalar ishonchli deb topildi.

NATIJALAR

Tahlillar natijasida aniqlandi: iqlim o'zgarishlari O'zbekistonning ayrim mahsulotlar eksportida salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, qishloq xo'jaligiga oid mahsulotlar – meva, sabzavot, paxta, uzum va g'alla iqlim o'zgaruvchanligiga juda sezgir.

Eksport geografiyasi ham iqlim bilan bog'liq. Masalan, iqlim og'ir kechgan yillarda eksport yo'nalishlarida o'zgarishlar kuzatilib, ichki iste'molga ko'proq e'tibor qaratilgan. Bu esa tashqi savdo balansiga bosimni oshirgan.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, barqaror iqlim strategiyasi ishlab chiqilmasa, iqlim o'zgarishlari tufayli eksportdagi noaniqliklar kuchayadi. Bu esa iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot yakunida ayrim mahsulotlar bo'yicha iqlimga chidamli texnologiyalarni joriy qilish, sug'orish tizimini modernizatsiyalash va eksport tarkibini diversifikatsiya qilish zarurligi ta'kidlandi.

1-jadval. 2015–2024 yillarda eksport toifalari va o'rtacha harorat ko'rsatkichlari (O'zbekiston misolida)

Yil	O'rtacha yillik harorat (°C)	Qishloq xo'jaligi eksporti (mln \$)	Paxta eksporti (mln \$)	Meva-sabzavot eksporti (mln \$)	Sanoat mahsulotlari eksporti (mln \$)
2015	13.7	2,150	1,080	350	2,980
2016	13.9	2,120	1,050	360	3,200
2017	14.1	2,080	990	375	3,400
2018	14.3	2,000	940	400	3,650
2019	14.6	1,950	910	420	3,800
2020	14.8	1,880	860	435	3,950
2021	15.0	1,820	830	450	4,100
2022	15.1	1,770	790	470	4,300
2023	15.3	1,730	750	490	4,450
2024	15.4	1,700	720	500	4,600

Ushbu jadval 2015–2024 yillar davomida O'zbekiston eksportining asosiy tarmoqlari bo'yicha (qishloq xo'jaligi, paxta, meva-sabzavot, sanoat mahsulotlari)

o'zgarishini hamda bu o'zgarishlarga iqlim omili sifatida haroratning ta'sirini aks ettiradi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki:

- **O'rtacha yillik harorat** yildan-yilga o'sib bormoqda, bu esa iqlim isishining belgisidir.
- **Qishloq xo'jaligi va paxta eksporti** haroratning oshishi bilan pasaymoqda. Bu mahsulotlarning iqlimga sezuvchanligini ko'rsatadi.
- Aksincha, **sanoat mahsulotlari eksporti** yildan-yilga ortib bormoqda, bu esa sanoat tarmog'ining iqlim o'zgarishlariga kamroq bog'liqligini anglatadi.
- **Meva-sabzavot eksporti** esa nisbatan barqaror o'sishni ko'rsatmoqda, lekin iqlimga sezgirligi past bo'lsa-da, ma'lum darajada bog'liqlik mavjud.

Bu ma'lumotlar asosida regressiya tahlili orqali iqlim o'zgarishlarining eksport toifalariga nisbiy ta'siri iqtisodiy modellashtirilgan. Jadval tahlili, maqola metodologiyasi bo'limida keltirilgan ekonometrik modelni asoslab berishga xizmat qiladi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, iqlim o'zgarishlari O'zbekiston eksport strategiyasini shakllantirishda muhim omillardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi o'zgarishlar bunga yaqqol misoldir.

Ekonometrik model yordamida harorat, yog'ingarchilik va qurg'oqchilik ko'rsatkichlarining eksport hajmiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani aniqlandi. Bu ma'lumotlar asosida eksport strategiyasini moslashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Eksport siyosatini shakllantirishda iqlim xavf-xatarlarini hisobga olgan holda hududiy yondashuv zarurligi isbotlandi. Bu orqali iqlimga nisbatan barqaror tarmoqlarni rivojlantirish, mahsulot sifati va eksport hajmini oshirish mumkin.

Maqola natijalari asosida, hukumatga va eksport qiluvchi korxonalariga iqlim xavfini baholovchi indikatorlar asosida eksport rejalarini tuzish tavsiya etiladi. Shu yo'l bilan iqlimga moslashgan iqtisodiy rivojlanish modeli shakllantirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC). Climate Change Reports. (2021–2023)
2. Stern, N. (2006). The Economics of Climate Change: The Stern Review. Cambridge University Press.

3. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi: Rasmiy eksport statistikasi. (2010–2024)
4. World Bank. (2022). Climate and Economic Resilience in Central Asia.
5. European Commission. (2023). Green Economy and Trade Strategies for Central Asia.



**ATROF-MUHITNI ASRAB-AVAYLASH KO'NIKMALARINI
SHAKILLANTIRISHDA TA'LIM-TARBIYA MUHITINING TASHKIL
ETILISHI: TARBIYACHINING KASBIY TAYYORGARLIGI VA
KO'NIKMALARI**

Amirova Hafiza Olimjonovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

ANNOTATSIYA: Bugungi kunda atrof-muhit muhofazasi global miqyosdagi muhim masalalardan biriga aylangan. Ekologik muammolarning kuchayib borayotgani insoniyatdan yanada faol harakatlarni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan ta'lim-tarbiya muhitining atrof-muhitni asrashga yo'naltirilgan holda tashkil etilishi, kelajak avlodda ekologik madaniyatni shakllantirishning asosiy omillaridan biridir. Mazkur maqolada tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi va ko'nikmalari asosida ushbu muhitni yaratish muammolari tahlil qilinadi.

KALIT SO'ZLAR: Ekologik muammo, ekologik xavfsizlik, yosh-avlod, real pedagogik, ekoturizm, raqamli savadxonlik, elektron resurs, kasbiy tayyorgarlik, axloqiy-ruhiy, ijtimoiy-psixologik.

Kirish

Insoniyat taraqqiyoti bilan birga ekologik muammolar ham ortib bormoqda. Atmosfera havosining ifloslanishi, suv va yer resurslarining kamayishi, iqlim o'zgarishlari butun dunyo miqyosida xavotir uyg'otmoqda. Bunday muammolarni bartaraf etishda ta'lim muassasalarining, ayniqsa tarbiyachilarning o'rni beqiyosdir. O'zbekistonda ekologik xavfsizlik masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, yosh avlodni ekologik madaniyat ruhida tarbiyalash muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ma'naviy yetuk, axloqli, pok insonlar qilib voyaga yetkazishda tabiat bilan tanishtirish metodikasi fani muhim ahamiyat kasb etadi. Uning maqsadi, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash, tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, Vatanga mehrlil bo'lish, ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish, tabiat haqida mukammal bilimga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashdir. Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib,

ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Ta'lim-tarbiya muhitining ekologik jihatdan boyitilgan holda tashkil etilishi tarbiyalanuvchilarda barqaror rivojlanish, tabiatni asrash va unga mehr bilan qarash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Yashil makon" loyihasi doirasida barcha ta'lim tashkilotlarida ekologik ishlar, daraxt ekish aksiyalari, tabiatni muhofaza qilishga oid tadbirlar yo'lga qo'yilgan.

Zamonaviy davrda insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq jarayonlar nafaqat ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarga, balki atrof-muhitga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda barqaror rivojlanishni ta'minlashda, eng avvalo, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ong va atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish tarbiyachilarning muhim vazifalaridan biriga aylangan. Bu borada ta'lim-tarbiya tizimi beqiyos ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yaratilgan tarbiyaviy muhit, tarbiyalanuvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda asosiy omil sifatida maydonga chiqadi. Pedagogik nazariyalarda tarbiya muhitining shaxs rivojiga ko'rsatadigan ta'siri alohida e'tirof etilgan bo'lib, ekologik tarbiya bu yo'nalishda integral yondashuvni talab etadi. Ta'lim-tarbiya muhitining ekologik yo'nalishda tashkil etilishi tarbiyalanuvchilarda nafaqat bilim, balki ko'nikma va qadriyatlar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu muhitda pedagog va tarbiyachilar yetakchi o'rin tutadi, chunki ular tarbiyalanuvchilarni bevosita motivatsiyalash, kuzatish, mustaqil fikrlashga undash orqali ekologik ongni rivojlantiradi. Xususan, mahg'ulot jarayoniga ekologik mazmundagi interfaol metodlarni joriy etish, tabiatga oid amaliy tadbirlarni tashkil etish, ekologik loyihalar asosida tarbiyalanuvchilarning faol ishtirokini ta'minlash orqali ko'zlangan natijaga erishish mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasi, ya'ni yashil hududlar, ekologik stendlar, ekskursiyalar uchun mo'ljallangan tajriba maydonchalari, shuningdek, pedagogik jamoaning ekologik kompetensiyalari yuqori bo'lishi zarur. Zero, faqatgina tizimli yondashuv orqali ta'lim-tarbiya muhitida atrof-muhitga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga erishiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayoni o'zining murakkabligi, tezkor o'zgaruvchanligi hamda innovatsion tendensiyalari bilan ajralib turadi. Bu holat, o'z navbatida, pedagogik jarayon ishtirokchilari – xususan, tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi va faoliyatga bo'lgan yondashuvlarida yangi sifat bosqichlarini talab qilmoqda. Tarbiyachi endilikda faqatgina axloqiy-psixologik nazoratni amalga oshiruvchi shaxs

emas, balki ta'lim-tarbiya muhitining faol tashkilotchisi, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni yetkazuvchi, shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etuvchi subyekt sifatida ko'rilmoqda. Tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi – bu nafaqat maxsus bilimlar majmuasi, balki shaxsiy sifatlar, axloqiy mezonlar, pedagogik metodikalarga ega bo'lish hamda kasbiy faoliyatga doimiy refleksiya qilish qobiliyatidir. Bu jarayonni quyidagi asosiy tarkibiy qismlar orqali ifodalash mumkin:

1. Nazariy-metodik tayyorgarlik – pedagogik va psixologik bilimlar, bolalar rivoji nazariyasi, didaktika va tarbiya uslublari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish;
2. Praktik-amaliy tayyorgarlik – real pedagogik vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, dars va mashg'ulotlarni samarali rejalashtirish, baholash va monitoringni yuritish ko'nikmalari;
3. Axloqiy-madaniy kompetensiyalar – bolalarga nisbatan tolerant, mehribon, bag'rikeng, insonparvar munosabatda bo'lish, axloqiy qadriyatlarni amaliyotga joriy etish;
4. Raqamli savodxonlik va innovatsion ko'nikmalar – zamonaviy texnologiyalardan, masofaviy ta'lim platformalaridan samarali foydalanish malakasi;
5. Ijtimoiy-psixologik kompetensiyalar – jamoa bilan ishlash, ota-onalar bilan samarali hamkorlik olib borish, nizoli vaziyatlarda mediatorlik qilish ko'nikmalari.

Bugungi kunda kasbiy rivojlanish dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, tarbiyachilar muntazam ravishda malaka oshirish, o'z ustida ishlash, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchanlikni namoyon qilishlari lozim. Ta'lim tizimining samaradorligi aynan tarbiyachilarning kasbiy yetukligiga bog'liq bo'lib, bu borada davlat tomonidan yaratilayotgan sharoitlar (treninglar, seminarlarda ishtirok, elektron resurslardan foydalanish, grant dasturlari va boshqalar) muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi, uning pedagogik faoliyatini nafaqat texnik jihatdan, balki axloqiy-ruhiy va estetik jihatdan ham takomillashtiradi. Bu esa o'z navbatida bolalarning har tomonlama kamol topishiga, sog'lom psixologik iqlim shakllanishiga va sog'lom jamiyat barpo etilishiga xizmat qiladi. Tarbiyachining bu boradagi o'rni esa nihoyatda muhim. Zamonaviy tarbiyachi quyidagi kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim:

- Ekologik huquqiy bilimlar (mahalliy va xalqaro ekologik qonunchilik);

- Ekopedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish;
- Didaktik vositalardan foydalanish orqali ekologik mavzularni o‘rgatish;
- Amaliy loyihalarni ishlab chiqish va baholash ko‘nikmalari.

Pedagogik faoliyatda quyidagi shakl va usullar ekologik tarbiyada samarali natija beradi:

1. Interfaol usullar (debat, rol o‘yinlari, muammoli vaziyatlar);
2. Tashqi ta’lim muhiti — ekoturizm, ekologik lagerlar, tajriba maydonchalari;
3. Raqamli vositalar – ekologik videodarslar, onlayn viktorinalar va testlar
4. Hamkorlikdagi ta’lim – ota-onalar, mahalla, ekologik tashkilotlar bilan loyiha asosida ish olib borish.

Xulosa

Atrof-muhitni asrab-avaylash ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etishda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida shakllantirilayotgan pedagogik muhit va ayniqsa, tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani aniqlanmoqda. Ekologik ong va madaniyatni bolalikdan boshlab singdirish, bu borada metodik asoslangan, maqsadli va samarali ta’lim-tarbiya faoliyatini yo‘lga qo‘yishni talab etadi. Tarbiyachi shaxsining kasbiy kompetensiyasi – bu faqatgina nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, balki amaliy ko‘nikmalar, psixologik tayyorgarlik, pedagogik did, shaxsiy ekologik mas’uliyat va innovatsion yondashuvlar bilan uyg‘unlashgan murakkab kasbiy fazilatlar majmuasidir. Ular ta’lim muhitini ekologik ruhda tashkil etish, tarbiyalanuvchilarning mustaqil fikrlashi, kuzatuvchanligi, tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik va hamjihatlik tamoyillarini shakllantirishda bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, ta’lim-tarbiya muhitini ekologik yo‘nalishda tashkil etish va bu muhitda faoliyat yurituvchi tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini tizimli rivojlantirish, barqaror ekologik ongga ega avlodni tarbiyalashda strategik omil sifatida e’tirof etilishi zarur. Bu esa o‘z navbatida milliy ta’lim siyosatini ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillari bilan uyg‘unlashtirishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. Otavaliyeva O'. Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkor- ligi. T. O'qituvchi
4. Qodirova S. Ekologik tarbiya asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi “Yashil makon” loyihasini amalga oshirish to‘g‘risidagi qarori.



MINTAQADA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Kobilova Zebo Bobokulovna

Termiz davlat universiteti,
“Iqtisodiyot” kafedrasining mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada mehnat resurslari, ularning shakllanishi tashkiliy – iqtisodiy ahamiyati nazariy jihatdan tadqiq qilingan. Shuningdek, mehnat resurslarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, o'zaro farqlanishi asoslab berilgan. Mintaqada mehnat resurslaridan foydalanishning hozirgi holati tahlil qilingan va istiqbolda ulardan samarali foydalanish bo'yicha iqtisodiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mintaqada mehnat resurslari, mehnat bozori, bandlik, iqtisodiy faol aholi, mehnat migratsiyasi, inson resurslari.

Аннотация: В статье теоретически исследуются трудовые ресурсы и организационно-экономическое значение их формирования. Обосновывается также дифференциация трудовых ресурсов на основе их специфических характеристик. Проведен анализ современного состояния использования трудовых ресурсов в регионе и разработаны экономически обоснованные предложения и рекомендации по их эффективному использованию в перспективе.

Ключевые слова: трудовые ресурсы региона, рынок труда, занятость, экономически активное население, трудовая миграция, человеческие ресурсы.

Annotation: The article theoretically studies labor resources, their organizational and economic significance. It also substantiates their differentiation based on their specific characteristics. The current state of labor resources use in the region is analyzed and economically sound proposals and recommendations are developed for their effective use in the future.

Key words: labor resources in the region, labor market, employment, economically active population, labor migration, human resources.

KIRISH

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar bozor munosabatlari shakllanishi mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari rivojlanishi va mavqeini tubdan o'zgartirmoqda. Turli xil mulk, hajmi va faoliyati turlicha bo'lgan korxonalarining

mavjud bo'lishi yangi iqtisodiy, va huquqiy munosabatlar shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

Bu holat insonlar o'rtasidagi munosabatlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatmokka, ularning mulkka, olinayotgan natija va uning samaradorligiga bo'lgan qarashi tubdan o'zgarib bormoqda.

Bu jarayonlar aholini ish bilan ta'minlash va bu orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish, eng avvalo, mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanishga bog'liq. Oxirgi yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy jaryonlarni chuqur ilmiy tahlil qilish asosida uning ob'ektiv qonuniyatlarini tadqiq qilish, shulardan kelib chiqqan holda aniq xulosalar chiqarish hamda amaliy tadbirlar belgilash mumkin. Mintaqada mehnat resurslaridan samarali foydalanish tom ma'noda o'ziga xos tamoyillarga asoslangan mehnat resurslarini hududiy taqsimlash, tabiat bilan jamiyatning qonun va qonuniyatlarini anglash, ushbu jarayonlarni chuqur tahlil qilish, ilmiy ishlanmalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga qo'llashni nazarda tutadi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmonning maqsad mohiyati ham mamlakatimiz mehnat resurslaridan samarali foydalanish orqali milliy iqtisodiyot taraqqiyotini ta'minlash, pirovardida aholi turmush farovonligini yanada yaxshilashdan iborat [1]. Mazkur strategiya ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini beshta ustuvor yo'nalish doirasida qamrab olganligi va "ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, aholining farovonligi va daromadlarini oshirish, har bir mintaqaning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm va mehnat resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash" ga qaratilganligi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz mintaqalarida mehnat resurslari samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lib, bu borada ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish zaruratini keltirib chiqaradi. Ilmiy manbalarda mintaqalar mehnat resurslari va ulardan samarali foydalanish yuzasidan turli ilmiy talqinlar va qarashlar mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mintaqada mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslarini xorijiy davlat olimlaridan ya'ni, Rossiyalik iqtisodchilardan *Ю. Г.*

Одегов Ю. Г¹., И.М.Алиев, Н. А. Горелов, Л. О. Ильина²., Абдулманапов, П. Г., Gladilin A.V., Yegorov Ye.A., Kuzina L.A³., Беляева, Л.А⁴., Бондаренко, Л. В⁵. va boshqalarning ilmiy asarlarida tadqiq etilgan.

O'zbekiston Respublikasida esa ushbu masalalar bo'yicha iqtisodchi olimlardan Abdurahmonov Q.X⁶., Xolmo'minov Sh.K.⁷., va boshqalarning ishlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, statistik guruhlash, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

